

TIREOTOKSIKOZNING UMUMIY TIBBIY TAHLILI

Central Asian Medical University talabalari

Badirova Ruhshona Fayoziddin qizi

Shavkatova Mushtariybonu Shoxruxbek qizi

Mutabarova Mohinora Muntozjon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tireotoksikoz kasalligining etiologiyasi, patogenezi mexanizmlari, klinik ko'rinishlari, diagnostika usullari hamda davolash tamoyillari yoritilgan. Maqola umumiy tibbiy tahlil asosida yozilib, endokrin tizimdagi gormonlar disbalansi natijasida yuzaga keluvchi patologik o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, tireotoksikozning klinik belgilari va asoratlarini erta aniqlashning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari kasallikni davolash va profilaktika choralarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Abstract

This article discusses the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic methods and treatment principles of thyrotoxicosis. The article is written on the basis of a general medical analysis and analyzes pathological changes that occur as a result of hormonal imbalance in the endocrine system. The importance of early detection of clinical signs and complications of thyrotoxicosis is also indicated. The results of the study are of practical importance in improving the treatment and preventive measures of the disease.

Аннотация

В данной статье рассматриваются этиология, патогенез, клинические проявления, методы диагностики и принципы лечения тиреотоксикоза. Статья написана на основе общемедицинского анализа и анализирует патологические изменения, возникающие вследствие гормонального дисбаланса в эндокринной системе. Также отмечена важность раннего выявления клинических признаков и

осложнений тиреотоксикоза. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования лечебно-профилактических мер заболевания.

Kalit so'zlar

Tireotoksikoz, qalqonsimon bez, tiroksin, triiodtironin, gormon, endokrin tizim, metabolizm, diagnostika, davolash, Graves kasalligi.

Keywords

Thyrototoxicosis, thyroid gland, thyroxine, triiodothyronine, hormone, endocrine system, metabolism, diagnostics, treatment, Graves' disease.

Ключевые слова

Тиреотоксикоз, щитовидная железа, тироксин, трийодтиронин, гормон, эндокринная система, обмен веществ, диагностика, лечение, болезнь Грейвса.

Kirish

Endokrin

tizim inson organizmining muhim regulyator tizimlaridan biri bo'lib, gormonlar orqali barcha fiziologik jarayonlarni boshqaradi. Qalqonsimon bez gormonlarining me'yordan ortiq ishlab chiqilishi bilan kechuvchi holat tireotoksikoz deb ataladi. Bu sindrom metabolizmning keskin faollashuvi, yurak-qon tomir, asab va boshqa tizimlarga patologik ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda bu kasallik ayollar orasida sezilarli ortgan. Tireotoksikoz klinik ko'rinishlari va asoratlari tufayli tibbiy amaliyotda dolzarb muammo sifatida o'rganiladi.

Introduction

The endocrine system is one of the important regulatory systems of the human body, which controls all physiological processes through hormones. The condition associated with the excessive production of thyroid hormones is called thyrotoxicosis. This syndrome is characterized by a sharp activation of metabolism, pathological effects on the cardiovascular, nervous and other systems. In recent years, the incidence of this disease among women has increased significantly. Thyrotoxicosis is studied as an urgent problem in medical practice due to its clinical manifestations and complications.

Введение

Эндокринная система – одна из важных регуляторных систем организма человека, контролирующая все физиологические процессы посредством гормонов. Состояние, связанное с избыточной продукцией тиреоидных гормонов, называется тиреотоксикозом. Этот синдром характеризуется резкой активацией обмена веществ, патологическим влиянием на сердечно-сосудистую, нервную и другие системы. В последние годы заболеваемость тиреотоксикозом среди женщин значительно возросла. Тиреотоксикоз рассматривается как актуальная проблема практической медицины в связи с его клиническими проявлениями и осложнениями.

Adabiyotlarni o'rganish

So'nggi o'n yilliklarda tireotoksikoz bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Harrison (2023) ma'lumotlariga ko'ra, qalqonsimon bezning autoimmun kasalliklari endokrin tizim patologiyalarining 15–20% ini tashkil etadi. WHO (2022) ma'lumotlarida esa, dunyo aholisining 2–3% ida tireotoksikoz simptomlari qayd etilgan. Endocrine Society (2024) tadqiqotlariga ko'ra, gormonlarning ortiqcha ishlab chiqilishi yurak faoliyatining tezlashishiga, kislorod sarfining oshishiga va asab tizimi qo'zg'aluvchanligining kuchayishiga olib keladi. O'zbekiston olimlaridan Karimov A. (2021) o'z ishlarida yod balansining buzilishi, stress va genetik moyillikning tireotoksikoz rivojlanishidagi rolini alohida ta'kidlaydi. Bu ma'lumotlar kasallikni aniqlash va davolashda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Asosiy qism

Tireotoksikozni o'rganishda klinik kuzatuv, laborator tahlil va instrumental diagnostika usullari asosiy o'rin tutadi. Tadqiqotlarda bemorlarda T3, T4, va TSH gormonlarining o'zaro nisbatlari o'rganiladi. Shuningdek, ultratovush tekshiruvi (UTT) orqali qalqonsimon bez hajmi va tuzilmasi aniqlanadi.

Tireotoksikozning asosiy sababi qalqonsimon bez gormonlarining (T3 va T4) ortiqcha ishlab chiqilishidir. Bunda Graves-Basedov kasalligi, toksik tugunli buchoq, subakut tireoidit va autoimmun jarayonlar asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

Klinik

belgilar:

- Yurak-qon tomir tizimi: taxikardiya, gipertenziya, aritmiyalari.
- Asab tizimi: bezovtalik, titroq, uyqusizlik.
- Metabolik o'zgarishlar: tana vaznining kamayishi, issiqlikka toqatning pasayishi.
- Ko'z simptomlari: ekzoftalm, fotofobiya.

Diagnostika:

TSH darajasining pasayishi, T3 va T4 darajalarining oshishi kasallikni tasdiqlaydi. Radioizotopli skanirlash, UTT, MRI va KT orqali bezning funksional faoliyati baholanadi.

Davolash

usullari:

1. Medikamentoz terapiya — tireostatik preparatlar (metimazol, propiltiouratsil).
2. Radioaktiv yod terapiyasi — gormon ishlab chiqarishni kamaytiradi.
3. Jarrohlik usul — og'ir holatlarda subtotal tiroidektomiya.
4. Profilaktika — stressni kamaytirish, yod balansini nazorat qilish, sog'lom turmush tarzi.

Asoratlar

Davolash kechiktirilgan hollarda quyidagi asoratlar kuzatiladi:

Yurak tizimi: yurak yetishmovchiligi, arterial fibrillyatsiya.	Suyak tizimi: osteoporoz, suyak sinuvchanligining oshishi.
Metabalizm: insulin qarshiligi, tana vaznining keskin kamayishi.	Asab tizimi: depressiya, uyqusizlik, kognitiv funksiyalarning pasayishi.

Profilaktikasi

kasallikni erta aniqlash uchun muntazam tibbiy ko'riklardan o'tish yod yetishmasligini bartaraf etish va stress holatlarini kamaytirish muhim. Sog'lom ovqatlanish, yodlangan tuz iste'moli va jismoniy faollik kasallik xafini kamaaytiradi. Genetik moyilligi mavjud shaxslarda har yili TSH, T3 VA T4 darajalarini nazorat qilish tavsiya etiladi.

Xulosa

Tireotoksikoz — endokrin tizimdagi gormonlar muvozanatining buzilishi bilan kechuvchi murakkab kasallikdir. Uning erta aniqlanishi va kompleks davolanishi asoratlarning oldini oladi. Ilmiy va amaliy yondashuvlar yordamida tireotoksikozning klinik ko‘rinishlarini chuqur tahlil qilish bemor hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuning uchun tibbiyot xodimlari ushbu kasallikning belgilari, diagnostika usullari va davolash tamoyillarini mukammal bilishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harrison’s Principles of Internal Medicine, 21st Edition, 2023.
2. WHO Endocrinology Clinical Guidelines, 2023.
3. Endocrine Society Clinical Practice Guidelines, 2022.
4. Karimov A. va boshqalar. “Endokrin kasalliklar diagnostikasi va davolash usullari.” Toshkent: TTA, 2021.
5. PubMed Database: “Thyrotoxicosis: Clinical Manifestations and Management”, 2024.